



SHARQSHUNOSLIK
ВОСТОКОВЕДЕНИЕ
ORIENTAL STUDIES

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI ILMIY JURNALI

НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО
УНИВЕРСИТЕТА ВОСТОКОВЕДЕНИЯ

SCIENTIFIC JOURNAL OF THE TASHKENT STATE UNIVERSITY
OF ORIENTAL STUDIES

№ 2, 2026

**MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS****ADABIYOTSHUNOSLIK// ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ // LITERATURE**

- Abduvaxidov A.* Sarvepalli Radhakrishnanning falsafiy-teologik qarashlari 16
Ashurova M. Xitoy adabiyotida esse janrining paydo bo'lishi va taraqqiyoti 29

**TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK //
ЯЗЫКОЗНАНИЕ И ПЕРЕВОДОВЕДЕНИЕ //
LINGUISTICS AND STUDY OF TRANSLATION**

- Hamidov X.* G'afur G'ulomning "Yodgor" hikoyasidagi sovetizmlarning turkcha tarjimada berilishi 52
Karimova X. Overview and thinking on the development of modern chinese terminology .. 64
Yusupova G. Koreys va o'zbek lingvomadaniyatida xayrlashish nutq aktining ifodalanishi 79
Ibragimova N. «Ilmiy-texnik terminologiyani standartlashtirishning o'ziga xos xususiyatlari: XXR va O'zbekistonning qiyosiy tahlili» 115
Ochilov A., Ermatov U. The methodology of explaining grammatical rules in Alfiya by Ibn Malik 126
Sa'dullayev Sh. Ilk o'rta asrlarda o'rta hind-oriy tillaridan va sharqiy eroniy tillarga o'zlashgan leksika: tarixiy bosqichlar va omillar 135

**MANBASHUNOSLIK VA TARIKSHUNOSLIK //
ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ И ИСТОРИОГРАФИЯ //
SOURCE STUDIES AND HISTORIOGRAPHY**

- Xudayberdiev A., Mirzayev X.* Harbiy diplomatiya evolyusiyasining o'ziga xos xususiyatlari 142

**XALQARO MUNOSABATLAR VA SIYOSAT //
МЕЖДУНАРОДНЫЕ ОТНОШЕНИЯ И ПОЛИТИКА //
INTERNATIONAL RELATIONS AND POLITICS**

- Kasimov M.* Tizimli xavf-hatar va qarshi muvozanatlarni o'rganishning nazariy asoslari 157
Xodjimuratova D. Erondagi diniy-siyosiy tizim modernizatsiyasi jarayonlari tarixi 164
Shazmanov Sh., Sabirov L. XXRda havo va kosmos transporti siyosati 173
Puzayev A. Методология исследования проблемы национальной идентичности 182
Dustov U. US–China Strategic Competition and Regional Security: Central Asian Perspective 191
Abdulxayev A. Xitoyda modernizatsiya jarayonlarining siyosiy va ijtimoiy jihatlari 200
Олимов Д. Трансформация энергетического сектора Афганистана в контексте региональной политики Узбекистана 209
Boyxonov Sh. Pokistonning ko'p vektorli tashqi siyosatida Markaziy Osiyo bilan hamkorlik strategiyasining amaliy jihatlari 219



<i>Mamatqulov S.</i> Experience of combating terrorist groups and their activities in Pakistan	228
<i>Маннопова О.</i> Экономическое сотрудничество Узбекистана и Российской Федерации во время мирового финансово-экономического кризиса	237
<i>Исамухамедов Т.</i> СМИ и общественное мнение как ресурс обеспечения государственной и общественной безопасности Узбекистана	247
<i>Bekmirzayev F.</i> Механизмы цифрового взаимодействия государственных органов с бизнес- сообществом в Узбекистане: на пути к “цифровому регуляторному диалогу”	253
<i>Murzayeva Sh.</i> Markaziy Osiyoda milliy madaniy markazlar faoliyatini takomillashtirish mexanizmlari	264
<i>Seitov A., Mahmudova Z.</i> Turkiy jamiyatda siyosiy ong, psixopolitik ta’sir va yetakchilik fenomeni	276

FALSAFA // ФИЛОСОФИЯ // PHILOSOPHY

<i>Izzetova E., Shomukimov L.</i> Ideas for Modernizing Social Reality in Ismail Gasprinsky’s Thought and the Formation of Jadidism in Central Asia in the Context of Philosophical Discourse	291
---	-----



HARBIY DIPLOMATIYA EVOLYUSIYASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

AZIZ XUDAYBERDIEV

Dotsent, tarix fanlari nomzodi, TDSHU

XURSHED MIRZAYEV

Mustaqil tadqiqotchi, JIDU

Annotatsiya. Ushbu maqolada qadimgi zamonlardan hozirgi kungacha bo'lgan harbiy diplomatik munosabatlar tarixi, uning davlat tashqi siyosati va qurolli mojarolarni oldini olishda tutgan o'rni, zamonaviy tashqi harbiy aloqalarni o'rnatish xususiyatlari hamda harbiy attashelarning faoliyati o'rganilgan. Shuningdek, harbiy diplomatik munosabatlarni olib borish metodlari, erishilgan natijalar, ushbu faoliyatdan ko'zlangan maqsad va vazifalar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: harbiy diplomatiya, mudofaa diplomatiyasi, harbiy diplomatik manyovr, harbiy attashe, attashe apparati, tashqi siyosat, xalqaro munosabatlar, globallashtiruv, kiberxavfsizlik, harbiy hamkorlik, harbiy razvedka.

Abstract. This article examines the history of military-diplomatic relations from ancient times to the present day, their role in the state's foreign policy and in the prevention of armed conflicts, the specific features of establishing modern external military relations, as well as the activities of military attachés. In addition, the methods of conducting military-diplomatic relations, the achieved results, and the goals and objectives pursued by this activity are analyzed.

Keywords: military diplomacy, defence diplomacy, military-diplomatic maneuver, military attaché, attaché apparatus, foreign policy, international relations, globalization, cybersecurity, military cooperation, military intelligence.

Аннотация. В данной статье рассматривается история военно-дипломатических отношений с древних времён до наших дней, их роль во внешней политике государства и в предотвращении вооружённых конфликтов, особенности установления современных внешних военных связей, а также деятельность военных атташе. Кроме того, проанализированы методы ведения военно-дипломатических отношений, достигнутые результаты, цели и задачи, поставленные перед данной деятельностью.

Ключевые слова: военная дипломатия, оборонная дипломатия, военно-дипломатический манёвр, военный атташе, аппарат атташе, внешняя политика, международные отношения, глобализация, кибербезопасность, военное сотрудничество, военная разведка.



KIRISH. Zamonaviy global xavfsizlik muhitida yuzaga kelayotgan geosiyosiy qarama-qarshiliklar, mintaqaviy mojarolar, gibriddahdidlar va kiber xatarlar ko'lamini kengayib borayotgan bir vaqtda, davlatlarning harbiy-diplomatik munosabatlari nafaqat milliy mudofaa salohiyatini mustahkamlash, balki mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashda ham hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi ma'lum bo'lmoqda. Geosiyosiy jarayonlarda samarali natijalarga erishish maqsadida pragmatik xalqaro munosabatlarni olib borish doirasida faol harbiy diplomatik aloqalarni kengaytirish qurolli kuchlarning texnologik hamda siyosiy jihatdan rivojlanishiga zamin yaratadi. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoev "Biz harbiy sohada xalqaro hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish, jumladan, yaqin va uzoq xoriydagi strategik hamkorlarimiz bilan harbiy-texnik va harbiy-siyosiy muloqotni faollashtirishga alohida e'tibor qaratamiz"¹ deb ta'kidlagan.

Bugungi kunda xalqaro diplomatiyaning muhim va asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida harbiy diplomatiya shakllanmoqda. **Harbiy diplomatiya** davlat tashqi siyosati va milliy xavfsizlik tizimining ajralmas qismi bo'lib, u mudofaa sohasi orqali amalga oshiriladigan diplomatik faoliyatni anglatadi.

Harbiy diplomatiya orqali davlatning mudofaa salohiyatidan tinch maqsadlarda foydalanish, ya'ni mamlakatlararo munosabatlarda ishonchga asoslangan muloqotni amalga oshirish, xavf-xatarlarni kamaytirish, hamkorlikni kuchaytirishga erishiladi. Uning asosiy vazifalari harbiy mojarolarni oldini olish, strategik hamkorlikni rivojlantirish va milliy xavfsizlikni ta'minlashdan iborat.²

Shu nuqtai nazardan harbiy diplomatiya tarixi va uning zamonaviy xavfsizlik tizimidagi o'rni to'g'risida ilmiy izlanishlar olib borish **dolzarb mavzulardan biri hisoblanmoqda.**

Ushbu maqolada harbiy diplomatiyaning tarixiy evolyusiyasi, rivojlanish bosqichlari, uning davlat tashqi siyosatidagi o'rni, harbiy attashe instituti shakllanishi hamda zamonaviy harbiy diplomatik aloqalar xususiyatlarini tahlil qilish **maqsad qilingan.**

TADQIQOTNING USULLARI. Ilmiy maqolada o'zbek, rus, ingliz, fors va dariy tilidagi ilmiy materiallar hamda internet resurslari qiyosiy tahlil qilindi. Shuningdek, maqolada tizimli tahlil, kontent tahlil, tarixiy-qiyosiy tahlil, evolyusion yondashuv, institutsional tahlil hamda manbashunoslik (ko'p tilli adabiyotlar tahlili) kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

NATIJALAR. Maqolani yozish davomida olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida harbiy diplomatiya shakllanishi va rivojlanishining asosiy bosqichlari

¹ Mirziyoyev, Sh. M. (2023). O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi nutqi. Retrieved from <https://daryo.uz/2023/09/01/shavkat-mirziyoyevning-ozbekiston-mustaqilligining-32-yilligiga-bagishlangan-tantanali-marosimdagi-nutqi/>

² Кузнецов И.Н. (2019). Военная дипломатия. Москва: Юрайт. - С. 5-7.



tizimlashtirildi, harbiy attashe institutining shakllanish bosqichlari tarixiy nuqtai nazardan asoslandi hamda zamonaviy kiber va kosmos diplomatiyasi harbiy diplomatiya evolyusiyasining yangi yoʻnalishi maqomida baholandi.

Maqolaning **ilmiy yangiligi harbiy** diplomatiya evolyusiyasini tarixiy va zamonaviy harbiy-doʻstona munosabatlar nuqtai nazaridan kompleks tahlil qilishda namoyon boʻladi.

MUHOKAMA

Harbiy diplomatiya tarixiga nazar soladigan boʻlsak, ushbu faoliyatning boshlangʻich namunalari qadim zamonlarda ham mavjud ekanligi tahlil natijasida aniqlandi. Harbiy diplomatik xizmatlar xalqaro diplomatiya tarkibida XVII asrga kelib taraqqiy eta boshlagan boʻlsa-da, qadimda harbiy elchilar va harbiy qoʻmondonlar oʻzlarining dushmanlari yoki ittifoqchilari bilan vaqtinchalik oʻt ochishni toʻxtatish yoki asirlarni almashish hamda harbiy hamkorlikni amalga oshirishi toʻgʻrisida muzokaralar olib borish uchun bevosita diplomatik aloqalar oʻrnatgan.

Xususan, **qadimgi Bobil va Misr davlatlari** tashqi siyosatini **qiyosiy tahlil qilish jarayonida** mazkur mamlakatlarda sulh kelishuvlari, shartnomalari, harbiy ittifoqlar, oʻzaro harbiy yordam va raqib kuchlarga qarshi birgalikda kurashish holatlari kuzatilgan. Mazkur davlatlarda harbiy kuch va diplomatik echimlar koʻpincha yonma-yon qoʻllanilgan. Qudratli davlatlar oʻrtasidagi nikohlar, ittifoqlar va shartnomalar tinchlikni taʼminlash yoki dushmanni qoʻrqitish vositasi boʻlgan.

Shuningdek, qadimgi Bobil davlatida diplomatik aloqalar huquqiy asosga ega boʻlgan. Jumladan, miloddan avvalgi XVIII asrda hukmronlik qilgan Xammurapi qoʻshni shahar-davlatlar bilan vaqtinchalik sulh kelishuvlari tuzgan va ular vositasida oʻz harbiy yurishlarini rejalashtirgan.

Bundan tashqari, Bobil va Mariy davlatlari oʻrtasida tuzilgan shartnomalarda oʻzaro harbiy yordam, dushmanlarga qarshi hamkorlikda harakat qilish va qochqinlarni qaytarish kabi bandler mavjud boʻlgan. Bu misollar Bobilda diplomatiya harbiy strategiyaning ajralmas qismi ekanligidan dalolat bermoqda.¹

Qadimgi Misrda sulh shartnomalari va sulolaviy nikohlar tashqi siyosatning muhim jihatlaridan biri hisoblangan. Misol uchun, Misr firʼavni Ramses II va Xett podshohi Xattusili III oʻrtasida miloddan avvalgi taxminan 1278 yilda sulh kelishuvi tuzilgan. Shartnomada ikki mamlakat oʻrtasida oʻzaro qurolli hujum qilmaslik, tashqi dushmanlarga nisbatan hamkorlikda kurashish hamda siyosiy barqarorlikni taʼminlash kabi shartlar belgilangan. Shuningdek, Ramses II Xett podshohining qiziga uylanib, sulolaviy nikoh orqali ittifoqni yanada mustahkamlagan.

¹ Шарипов Г.З. (2020). Штрихи к истории военного дела Бухарского эмирата периода правления эмира Насруллы (1826-1860 гг.). Retrieved from <https://cyberleninka.ru>



Bu holatlar tahlili qadimgi Sharq mamlakatlarida sulh shartnomalari harbiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlash bilan birga nikoh diplomatiyasi vositasida institutsional ravishda mustahkamlanganini ko'rsatadi.¹

Qadimgi Yunon shahar-davlatlarida mamlakatlararo munosabatlar elchilar orqali turli harbiy munosabatlar, hamkorliklar va ittifoqchilik shartnomalari tuzilganligi ma'lum. Polislar o'rtasidagi diplomatik munosabatlar, ayniqsa, urush va tinchlik masalalarida muzokaralar olib borilishi, ittifoqlar tuzish hamda o'zaro yordam majburiyatlarini belgilash orqali namoyon bo'lgan.

Qadimgi Yunon shahar-davlatlaridan Sparta harbiylashgan jamiyati orqali tashqi siyosatda ta'sir o'tkazishga erishilgan. Taxminan milodiy 430 yillarda Sparta rahbarligi ostida shakllantirilgan Peloponnes ittifoqi Peloponnes yarim oroli va uning atrofidagi shahar-davlatlarni birlashtirgan harbiy-siyosiy ittifoq hisoblangan. Miloddan avvalgi 430–404 yillardagi Peloponnes urushi davrida ushbu ittifoq Afina yetakchiligidagi Delos ittifoqiga qarshi janglar olib borgan. Bu jarayon qadimgi Yunonda harbiy-siyosiy ittifoqlar diplomatiyaning muhim shakllaridan biri bo'lganini ko'rsatmoqda.²

Rim imperiyasida harbiy diplomatiya nisbatan markazlashgan tizimga ega bo'lib, keng miqyosda olib borilgan. Bu faoliyat vositasida qo'shni davlatlar bilan harbiy qo'shinlar harakati va munozarali vaziyatlarni hal etish masalasida muloqotlar tashkillashtirilgan. Shuningdek, jangovar harakatlar davomida harbiy diplomatiyadan asirlarni almashish, ziddiyatlarni yumshatish va ittifoqlar tuzish haqida muzokara olib borishda foydalanilgan.

Rim imperiyasida generallar va imperatorlar xorijiy xalqlar bilan shartnomalar tuzib, ittifoqlar barpo etgan va tinchlikni harbiy-siyosiy ustunlik orqali ta'minlashga intilgan. Rim tashqi siyosatining muhim natijalaridan biri sifatida baholangan Pax Romana (Rim tinchligi) aynan shunday usullar samarasi o'laroq yuzaga kelgan. Rim tinchligi Rim imperatori Avgust davridan (miloddan avvalgi 27 yil) Mark Avreliyning vafotigacha (milodiy 211 yil) davom etgan bo'lib, bu vaqtda sanoat taraqqiy topgan, aholi farovonligi, tinchlik va barqarorlik hukm surgan.

Bu amaliyotlar keyinchalik doimiy harbiy diplomatik organlar va harbiy attashe instituti shakllanishi uchun muayyan tarixiy asos bo'lib xizmat qilgan.³

Arab xalifaligi davrida (VII–IX asrlar) ham harbiy diplomatiya elementlari mavjud bo'lgan. Xalifalikning muvaffaqiyati nafaqat harbiy kuchga, balki diplomatik siyosatni to'g'ri yo'lga qo'yishga ham bog'liq edi. Harbiy diplomatiya orqali arablar ko'plab hududlarni qon to'kmasdan o'z tarkibiga qo'shdi, qo'shni

¹ Davies, V. (2018). *Peace in Ancient Egypt*. Boston: Brill. - pp. 322-341.

² Kuhrt, A. (1995). *The Ancient Near East c. 3000–330 BC*. London: Routledge. - pp. 123-144.

³ Luttwak, E. N. (2016). *The grand strategy of the Roman Empire*. Baltimore: Hopkins University Press.



davlatlar bilan munosabatlarni yo‘lga qo‘ydi va savdo yo‘llarini ochdi.

Harbiy diplomatik munosabatlar to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligi bois, ko‘p shaharlar va hududlar musulmon qo‘shinlarini qarshiliksiz qabul qilgan. Ushbu siyosat xalifalikka qisqa vaqt ichida ulkan hududlarni egallash, qo‘shni davlatlar bilan diplomatik munosabatlarni mustahkamlash va mintaqaviy siyosatda yetakchi o‘rin egallash imkonini berdi.¹

Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) davridan boshlab islom jamoasida harbiy harakatlar diplomatik echimlar bilan uyg‘un holda olib borilgan. Misol uchun 628 yilda musulmonlar va Makka qurayshlari o‘rtasida **Hudaybiya sulhi** vaqtinchalik tinchlikni ta‘minlash va islomning siyosiy jihatdan mustahkamlanishiga xizmat qilgan.

Mazkur tajriba xalifalik davrida tashqi siyosatning muhim tamoyiliga aylanib, harbiy harakatlardan oldin muzokaralar o‘tkazish an‘anasini shakllantirdi.²

Jumladan, arab xalifaligining eng yirik kengayishi Xalifa Umar ibn Xattob (634–644) davriga to‘g‘ri kelgan bo‘lib, Suriya, Iroq va Misr kabi hududlar ko‘p hollarda sulh kelishuvlari asosida xalifalik tarkibiga qo‘shilgan.

Masalan, 637 yilda diplomatik muzokaralarning natijasida Quddus shahri musulmonlarga taslim bo‘lgan. Diplomatik muloqot samarasi o‘laroq shahardagi xristianlar o‘z diniy erkinliklari, ibodatxonalari va mulklarini saqlab qolgan. Manbalarga ko‘ra, musulmonlar tomonidan xalqqa berilgan diniy erkinlik va mulk imtiyozlari mahalliy aholining qarshiliksiz bo‘ysunishiga sabab bo‘lgan.³

O‘zbek davlatchiligi tarixida ham harbiy diplomatik munosabatlar namunalarini kuzatishimiz mumkin.

Jumladan, Amir Temur va Zahiriddin Muhammad Bobur davrida olib borilgan faol tashqi siyosiy munosabatlar bilan bir qatorida harbiy-siyosiy hamkorlik shakllari ham amaliyotga tatbiq etilgan.

Amir Temur davri harbiy munosabatlarining eng yorqin ko‘rinishlaridan biri – Yevropa davlatlari bilan Boyazid I ga (Usmonlilar hukmdori) qarshi siyosiy muloqot hisoblanadi. Tarixiy manbalarda saqlanib qolgan Sohibqironning 1402–1403 yillar atrofida Fransiya qiroli Charl VI ga yuborgan xatlarida savdo aloqalarini rivojlantirish va siyosiy muloqotni yo‘lga qo‘yish g‘oyasi borligi qayd etilgan. Bu holatda muhim jihat: xatlar savdo haqida yozilgan bo‘lsa ham, u harbiy-siyosiy ittifoq uchun diplomatik platforma vazifasini bajargan. Ya‘ni iqtisodiy aloqalar orqali siyosiy yaqinlashuv ta‘minlangan. Mazkur diplomatik munosabatlar Amir Temurning Usmonlilarga qarshi g‘alabasidan keyin geosiyosiy vaziyatni o‘z foydasiga “hujjatlashtirish” (legitimlashtirish) harakatlari sifatida

¹ Кузищин В. И. (2019). История Древнего Востока. Москва: Юрайт. - С. 512-523.

² Ahmedov, B. (2018). Islom tarixi. Toshkent: Yangi asr avlodi. - B. 226-235.

³ جعفریان، رسول). ۲۰۱۸. (تاریخ خلفا. قم: دلیل ما، ص ۴۲۰.

(Jafarian, R. (2018). Tarikh-e Khulafa. Qom: Dalil-e Ma. -B. 420).

ham baholangan.¹

Zahiriddin Muhammad Boburning siyosiy maydonda tashqi munosabatlarni olib borishi unga qarshi Shayboniyar tomonidan kuchli bosim o'tkazilayotgan, shuningdek, uning ixtiyorida harbiy kuch va moddiy vositalar etishmovchiligi qayd etilayotgan bir vaqtga to'g'ri kelgan.

Shayboniyar qudrati kuchaygan bir paytda Bobur Movarounnahr hokimiyati uchun kurash olib borishga kirishgan. Shuning uchun u tashqi harbiy munosabatlarni "tanlov" emas, balki "zarurat" sifatida ishlatishga majbur bo'lgan. Bu borada u ittifoqchi topish, qo'shin va resurs jalb qilish, legitimlikni mustahkamlashga alohida e'tibor qaratgan.

Jumladan, 1511 yilda Bobur Eron shohi Ismoil Safaviy yordamida Samarqandni qisqa muddat ichida qaytarib olgan. Bu yo'l bilan tashqi harbiy yordam vositasida ichki siyosiy maqsadga erishgan. Biroq mahalliy aholi va siyosiy elita uchun tashqi ta'sir omillari (ayniqsa safaviylar bilan ittifoq tufayli yuzaga kelgan qarama-qarshiliklar) Boburning Samarqandni tark etishiga sabab bo'lganligi haqida tadqiqotlarda qayd etilgan.²

Bundan tashqari tashqi siyosiy aloqalarni o'rnatish orqali Bobur **harbiy diplomatik manyovr** strategiyasini qo'llaganligi kuzatilgan. U o'z davrining turli siyosiy markazlari (Movarounnahr – Xuroson – Eron) o'rtasida geosiyosiy imkoniyatlar izlagan hamda kuchlar muvozanatidan foydalanishga intilgan.³

Shuningdek, u legitimlik diplomatiyasi, ya'ni sulolaviy haq-huquqni asoslash va ittifoqlar tuzish orqali hokimiyatni tiklashga uringan.

O'z navbatida Bobur "resurs diplomatiyasi" (qo'shin, moliyaviy yordam, xavfsiz hudud topish) va "axborot diplomatiyasi"ni (maktub va elchilar orqali tezkor siyosiy muvofiqlashuv) qo'llagan holda tashqi harbiy munosabatlarni olib borgan.⁴

Renessans davrida Yevropadagi davlatlar o'rtasida shartnomaviy munosabatlar va kelishuvlar tobora rasmiy hamda institutsional tus oldi. 1648 yil 24 oktyabrda imzolangan Vestfaliya sulhi diniy urushlarni tugatish bilan birga, davlat mustaqilligi va suvereniteti tamoyillarini mustahkamladi. Ushbu sulh Germaniyaning Myunster shahrida Muqaddas Rim imperiyasi, Fransiya va Shvesiya o'rtasida imzolangan bo'lib, Yevropadagi 30 yillik urushga barham bergan. U Yevropaning siyosiy xaritasida jiddiy o'zgarishlarni yuzaga keltirgan, sobiq tizimli davlatlarning suverenitetini tan olish va Yevropada mustaqil davlatlar

¹ Azimjonova, S. (2019). Amir Temur va Temuriylar davri tarixi. Toshkent: Akadernashr. - B. 227.

² Xayriddin S. (2019). Boburiynoma. Toshkent: "Ma'naviyat". - B. 243-248.

³ Haydarov, M. (2020). O'zbekiston davlatchiligi tarixi. Toshkent: O'zbekiston. - B. 314-320.

⁴ Rahimov, Q. (2018). Temuriylar va Boburiylar davri tarixi. Toshkent: Akadernashr. - B. 237-241.



uyushmasi paydo bo'lishiga asos solgan. Bu harbiy diplomatik xizmatlarning kelgusi shakllanishi uchun asos bo'ldi.

Vestfaliya sulhi tizimi diplomatiyaning institutsional rivojlanishiga kuchli turtki berib, doimiy diplomatik vakolatxonalar va elchilik institutlarining Yevropa miqyosida faol tarqalishi hamda harbiy vakillarning diplomatiyaning keng doirasiga kiritilishini belgilab berdi. Ushbu tinchlik kelishuvidan so'ng **rasmiy harbiy diplomatik xizmatlarga asos solindi** va mamlakatlar armiyalari o'rtasida keng qamrovli diplomatik missiyalarni amalga oshirish ishlari yo'lga qo'yildi. Shu tariqa Vestfaliya sulhi zamonaviy mamlakatlararo munosabatlar va harbiy-diplomatik amaliyotlarning huquqiy-siyosiy asoslarini mustahkamlagan tarixiy bosqich sifatida baholanadi.¹

Shuningdek, mazkur davrda **harbiy attashe institutining tashkil etilishi** harbiy diplomatiya rivojlanishida yangi bosqichni boshlab berdi. **Harbiy attashe instituti** harbiy diplomatiyaning asosiy bo'g'inlaridan biri hisoblanib, xalqaro diplomatiya tarkibida XVII asrga kelib rivojlana boshlagan. Ushbu institutning ilk rivojlanish bosqichlari tarixi XVII asrda yuz bergan 30 yillik urush davrida Fransiya davlatida gersog Richel tomonidan harbiy xizmatdagi ayrim ofitserlarni ittifoqdosh harbiy kuchlar bilan o'zaro aloqani ta'minlash, harbiy harakatlar rivojlanishini monitoring qilish va razvedka ma'lumotlarini to'plash uchun jo'natilishi bilan boshlangan. Shu tariqa mazkur amaliyotlar zamonaviy harbiy attashe xizmati evolyusiyasining dastlabki bosqichi sifatida baholanmoqda.²

XVII asr oxirlarida Rossiyada Romanovlar oilasi vakili Pyotr I tomonidan diplomatik munosabatlar o'rnatilgan Yevropa davlatlari qurolli kuchlarining shtat tuzilmalari, qurol-aslahalari hamda harbiy rahbariyatini o'rganish maqsadida mazkur mamlakatdagi rus elchixonalari tarkibiga ofitserlarni lavozimlarga tayinlash ishlari amalga oshirildi. Mazkur shaxslar sar-diplomatlar deb nomlangan bo'lib, bu amaliyot keyinchalik Rossiyada harbiy-diplomatik xizmatning shakllanishiga zamin yaratgan.³

Ma'lumotlar tahlili shu davrdan boshlab ruslar harbiy diplomatiyadan foydalangan holda harbiy razvedka va axborot-tahliliy faoliyatni yashirin tarzda kengaytirganligidan dalolat bermoqda.

Napoleon Bonapart boshqa davlatlardagi harbiy-siyosiy vaziyatni tizimli ravishda kuzatish, razvedka ma'lumotlarini to'plash va fransuz rahbarlarini qiziqtirgan bir qator masalalar yuzasidan harbiy ofitserlardan hisobot qabul qilish amaliyotini yanada institutsionallashtirgan.

Napoleon Bonapart harbiy g'alabalarining asosiy omillaridan biri sifatida aniq va tezkor razvedka ma'lumotlariga tayangan. U "dushman haqidagi ma'lumot –

¹ Исаев Б.А. (2019). История международных отношений. Москва: Юрайт, - С. 381-385.

² Кузнецов И.Н. (2019). Военная дипломатия. Москва: Юрайт. - С. 128.

³ Анасимов Е.В. (2020) Петр Великий: личность и реформы. Москва: АСТ. - С. 136-143.



g'alabaniing yarmi" degan tamoyilga amal qilgan. Shu sababli Napoleon qo'shin qo'mondonlariga, elchilarga va maxsus yuborilgan ofitserlarga harbiy-siyosiy vaziyat haqida muntazam yozma hisobotlar taqdim etish majburiyatini yuklagan. Masalan, Italiya yurishlari (1796–1797) davrida Napoleon mahalliy aholi kayfiyati, Avstriya qo'shinlarining joylashuvi va ittifoqchi davlatlarning rejalari haqida harbiy ofitserlar yordamida muhim ma'lumotlarni to'plagan.¹

XVIII asrga kelib, Yevropa davlatlari o'rtasidagi harbiy-siyosiy raqobat kuchayishi natijasida harbiy diplomatiya faoliyatlari kengayib bordi. Shu sharoitda harbiy ofitserlarni elchixonalar tarkibiga kiritish an'anaviy tusga kirdi.

Jumladan, Fransiya, Angliya va Prussiya kabi qudratli davlatlar elchixonalariga harbiy attashelar faoliyatini yo'lga qo'yishni rasmiylashtirdi. Attashelarning asosiy vazifasi qo'shni va raqib davlatlardagi harbiy salohiyat, harbiy-siyosiy vaziyat, armiya qo'mondonligi va mudofaa qurollanishi haqida ma'lumot to'plashdan iborat bo'lgan.

Masalan, Fransiyada 1720 yillardan boshlab harbiy attashelar elchixonalarda ishlashni boshlagan. Ular Avstriya, Ispaniya va Sardiniya davlatlaridagi harbiy harakatlar va siyosiy vaziyat haqida Parijga muntazam hisobotlarni taqdim etgan. Bu hujjatlar asosida muhim harbiy va diplomatik qarorlar qabul qilingan.

Tadqiqotlarda mazkur amaliyotlar XVIII asrda **harbiy diplomatiyaning institutsionallashuv** bosqichi sifatida, XIX asrda esa **rasmiy harbiy attashe lavozimlari shakllanishiga olib kelgan evolyusion jarayon** sifatida baholanganligini kuzatishimiz mumkin.²

XIX asrda davlatlar xorijiy harbiy mashg'ulotlarni kuzatish, strategik rivojlanishlar borasida hisobot berish va qurolli kuchlar o'rtasida vositachi sifatida ishlash uchun elchixonalarda tashkil etilgan doimiy harbiy attashelardan foydalanishni boshlagan. Shu tariqa harbiy razvedka va diplomatiya integratsiyalanib, davlat tashqi siyosatining muhim elementiga aylandi.

Xususan, Fransiya, Britaniya, Prussiya va Rossiyada doimiy harbiy attashelar lavozimlari keng joriy etildi. Harbiy diplomatlarga asosan quyidagi vazifalar yuklatilgan:

1. Qabul qiluvchi davlat harbiy va jangovar mashg'ulotlarini nazorat hamda tahlil qilish.
2. Chegaradosh davlatlarning strategik rivojlanishlari, tashkiliy tuzilmasi va qurollanishi haqida muntazam axborot-tahliliy hisobotlar taqdim etish.
3. Davlatlar armiyalari va flotlari o'rtasida muzokara olib borish hamda hamkorlikni tashkillashtirish uchun vositachi vazifasini bajarish.
4. Raqib davlatlar harbiy qo'mondonlari va siyosiy rahbarlari bilan diplomatik

¹ Тарле Е. В. (2020). Наполеон. Москва: АСТ. - С. 273-310.

² Anderson, M. S. (2017). The rise of modern diplomacy. London: Longman. - pp. 132–138.



aloqa o'rnatish.¹

Bu amaliyotlar davlatlarga o'z qurolli kuchlarining rivojlanishi, harbiy siyosat va diplomatik qarorlarni aniq hamda tezkor qabul qilish imkonini berdi.

Misol uchun Rossiya harbiy attashelari Parij, London va Berlin elchixonalarida muntazam faoliyat yuritib, Yevropa davlatlari armiyalarining taktik usullari, yangi qurollari va mashg'ulot o'tkazish tizimlari haqida to'plangan ma'lumotlarni Sankt-Peterburgga yuborgan. Xususan, Prussiya va Avstriya davlatlari armiyalarining mashg'ulotlari va chegara xavfsizligi rus attashelari tomonidan tahlil qilib borilgan.

Shuningdek, XIX asrda mudofaa maqsadlariga mo'ljallangan milliy tashkilotlar va mustamlaka davlatlarning vujudga kelishi ko'pchilik mamlakatlarning harbiy diplomatiya faoliyatini rivojlantirishiga sabab bo'ldi. Mazkur davrga kelib, harbiy diplomatik vakillarni nafaqat dushman davlatlar balki, ittifoqdosh, neytral, yaqin qo'shni va uzoq masofada joylashgan davlatlarga ham safarbar etish boshlandi.

Ushbu asrda xalqaro diplomatik munosabatlarda harbiy diplomatiya tarkibiga kiruvchi harbiy attashe atamasi keng tarqaldi. "Harbiy attashe" birinchi bo'lib 1833 yil 23 fevralda Fransiya hukumati harbiy muassasasi buyrug'ida, xususan, "Birlashgan shtab ofitserlari elchixonaga turli diplomataviy vazifalarni bajarish uchun birlashtirilishi mumkin", deb belgilab qo'yildi. Attache (fransuzchadan olingan bo'lib, birlashtirilgan, yordam berish ma'nolarini bildiradi) tushunchasi asosida harbiy attashe atamasi yuzaga keldi va xalqaro diplomatiyada harbiy diplomatlarga nisbatan keng qo'llanila boshlandi.²

Shu tariqa, XIX asrning 80 yillarida ayrim mamlakatlarda harbiy diplomatiya tarkibiga kiruvchi attashe apparatlari faoliyati yo'lga qo'yildi. Apparatning tarkibiy qismiga qurolli kuchlarning qo'shin turi bo'yicha harbiy attashelar, ularning o'rinbosarlari va texnik xodimlar kiritildi. Mazkur xodimlarning har biriga aniq va tizimli vazifalarni yuklash ishlari amalga oshirildi.

Bu davrda harbiy diplomatiya alohida institut sifatida paydo bo'ldi. Yevropa davlatlari o'rtasidagi kuchli geosiyosiy raqobat sharoitida harbiy-siyosiy axborotni tizimli ravishda yig'ish, tahlil qilish va markazlashtirilgan tarzda yuqori rahbariyatga etkazish ishlari amalga oshirildi. Harbiy diplomatiya davlatlar tashqi siyosatini axborot bilan ta'minlovchi muhim mexanizmga aylandi.

Natijada harbiy diplomatiya mamlakatlar o'rtasidagi kuchlar muvozanatini saqlash, ehtimoliy tahdidlarni oldindan prognoz qilish va harbiy-siyosiy qarorlar qabul qilishda strategik vosita sifatida namoyon bo'ldi.

Markaziy Osiyo hududida XIX asrning birinchi yarmida mustaqil siyosiy

¹ Кузнецов И.Н. (2019). Военная дипломатия. Москва: Юрайт. - С. 83-112.

² Винокуров В.И. (2011). История военной дипломатии. В четырех т. Москва. ООО НИЦ «Инженер». Т.3. - С. 65.



tuzilmalar tariqasida faoliyat yuritgan Xiva xonligi, Buxoro amirligi va Qo‘qon xonligining tashqi siyosati hamda harbiy diplomatiyasi bir tomondan ichki xavfsizlikni ta‘minlash, ikkinchi tomondan esa tashqi tahdidlarga qarshi muvozanatni saqlashga qaratilgan edi. Ayniqsa, Rossiya imperiyasining janubiy hududlarga kengayishi va Britaniya imperiyasi bilan strategik raqobat (“Buyuk o‘yin”) fonida mintaqadagi mustaqil davlatlar o‘z xavfsizligini ta‘minlash maqsadida harbiy-diplomatik mexanizmlardan foydalanishga majbur bo‘lgan.

Jumladan, 1830 yilda Xiva xoni Muhammad Ibrohim tinchlik kelishuviga erishish maqsadida Rossiyaga elchilarni yuborgan. 1831 yilga kelib ikki davlat o‘rtasida tinchlik shartnomasi imzolanishiga erishilgan va asirga olingan 416 nafar rus harbiylari o‘z vatanlariga qaytarilgan.

1839-1840 yillarda Rossiya generali Perovskiy ekspeditsiyasi Xiva xonligiga qarshi harbiy harakatlarni amalga oshirgan. Ushbu harakatlar muvaffaqiyatsiz tugagan bo‘lsa-da, Rossiya va Xiva o‘rtasida diplomatik munosabatlar faollashishiga olib kelgan.

1842 yilda esa Xiva xoni Alloqulixon Rossiya imperiyasi asirlarini ozod qilish haqida qaror qabul qilib, ikki davlat o‘rtasidagi diplomatik munosabatlarni yumshatishga xizmat qilgan.¹

Xiva xonligi tashqi siyosatni olib borishda asosan quyidagi yo‘nalishga alohida e‘tibor qaratgan:

1. Qo‘shni davlatlar, xususan Qo‘qon xonligi va Buxoro amirligi bilan harbiy kuch tuzilmalar muvozanatini saqlash, raqobat va ba‘zan vaqtinchalik ittifoqlar asosida munosabatlarni olib borgan.

2. XVIII asrning oxiri va XIX asr boshlaridan boshlab Xiva Rossiya bilan savdo hamda elchilik munosabatlarini yo‘lga qo‘ygan. Mazkur aloqalar ko‘pincha asirlar masalasi, savdo yo‘llari va chegara xavfsizligi sohasida ekanligi ilmiy tadqiqotlarda keltirilgan.

3. Xiva xonligi armiyasi ko‘pincha otliq askarlardan tashkil etilgan bo‘lib, xonlikda harbiy yurishlar (kuch tuzilmalarning namoyishkorona harakati) orqali siyosiy ta‘sir o‘tkazish amaliyoti mavjud bo‘lgan. O‘sha zamonning yetakchi davlatlari bilan harbiy diplomatik munosabatlar faol olib borilmaganligi bois xonlik qo‘shinlari zamonaviy qurollarga ega bo‘lmagan.

Xonlikda harbiy diplomatiya mudofaa xarakteriga ega bo‘lib, strategik ittifoq siyosati yaxshi rivojlanmagan.

Buxoro amirligi mintaqadagi eng nufuzli siyosiy markazlardan biri hisoblanib, uning diplomatik munosabatlari ko‘proq an‘anaviy va diniy qoidalarga asoslangan.

Amirlik Eron, Usmonliylar davlati, Rossiya va Afg‘oniston bilan muntazam diplomatik munosabatlarni amalga oshirgan.

¹ Аллаева, Н. (2023). Дипломатия Хивинского ханства и торговые связи (XVI–XIX вв.). Ташкент: Фан. - С 122-131.



Shuningdek, Buxoro amirligi islom olamida nufuzli markazi hisoblanganligi bois, xalqaro aloqalarni oʻrnatishda diniy birdamlik va siyosiy ittifoq gʻoyalarini ilgari surgan.

Biroq, XIX asr oʻrtalarida Rossiya bilan bir necha marotaba harbiy diplomatik muzokaralar olib borilgan boʻlsa-da, ikki hukumat oʻrtasidagi qurolli mojarolarning oldi olinmadi.

Amirlikda anʼanaviy tuzilmaga ega armiya faoliyat yuritgan va harbiy islohotlar cheklangan darajada amalga oshirilgan.

Buxoro amiri Nasrulloxon hukmronlik davrida Rossiya imperiyasi bilan bir necha marotaba diplomatik missiyalar amalga oshirilgan.

1841–1842 yillarda Britaniya tomonidan ofitserlar Charlz Stoddart va Artur Konolli Buxoro amirligiga diplomatik vazifalarni bajarish uchun yuborilgan. Aslida harbiy razvedka tadbirlarini oʻtkazish uchun yuborilgan ofitserlar missiyasi amirlikning “Buyuk oʻyin” siyosiy maydonida muhim oʻrin tutayotganligini koʻrsatadi.¹

Qoʻqon xonligi koʻpincha hududiy kengayishni (Toshkent, Chimkent va boshqa mintaqalar) maqsad qilgan holda tashqi siyosiy munosabatlarni yoʻlga qoʻygan. Bu borada diplomatik aloqalarni oʻrnatish bilan bir vaqtda harbiy kuchdan ham foydalangan.

Harbiy tuzilmalar siyosiy boshqaruv bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, mahalliy beklar vositasida boshqarilgan.

XIX asrning 60-yillarida Qoʻqon xonligi Rossiya bosqiniga qarshi bir necha marotaba harbiy harakatlarni amalga oshirgan. Xonlikdagi ichki ziddiyatlar va siyosiy beqarorlik harbiy diplomatik munosabatlarni samarali yoʻlga qoʻyishga imkon bermagan.

Xonlik tomonidan faol va moslashuvchan diplomatik munosabatlar yoʻlga qoʻyilgan, biroq tashqi siyosatni olib borishda markazlashgan boshqaruvning etishmovchiligi diplomatik munosabatlarni zaif holatga keltirgan.²

Qoʻqon xonligi Sin imperiyasi bilan savdo va chegara xavfsizligi sohasida diplomatik munosabatlarni yoʻlga qoʻygan hamda Qoʻqonda Xitoy elchixonasi faoliyat yuritganligi ilmiy adabiyotlarda keltirilgan. 1831-1832 yillarda ushbu ikki davlat oʻrtasida qurolli toʻqnashuvlar boʻlib oʻtgan. Mazkur davrda Yevropa davlatlarining (Fransiya, Angliya) Xitoy va Hindiston hududlarini egallab olishga intilishlari natijasida Xitoy mustaqilligi ham xavf ostida qolgan. Shu sababli mazkur davlat Qoʻqon xonligi bilan diplomatik munosabatlarni yoʻlga qoʻyishga majbur boʻlgan. Natijada xonlik Sharqiy Turkiston hududida erkin savdo

¹ Шарипов Г.З. (2020). Штрихи к истории военного дела Бухарского эмирата периода правления эмира Насруллы (1826-1860 гг.). Retrieved from <https://cyberleninka.ru>

² Халфин Н.А. (1960). Политика России в Средней Азии (XIX век). Москва: Наука. - С. 201-214.



faoliyatini yuritish imkoniyatiga ega bo'lgan, Xitoy tomoni esa qurolli to'qnashuvlarsiz Sharqiy Turkiston hududini o'z tarkibida saqlab qolishga erishgan.

XIX asrning birinchi yarmida Qo'qon xonligining Sharqiy Turkiston tarkibidagi Qashg'ar, Yarkent va Xotan shaharlarida savdo va diplomatik vakolatxonalari mavjud bo'lgan. Bu holat xonlikning Markaziy Osiyo va Xitoy o'rtasidagi savdo aloqalarini o'rnatishda muhim vositachi bo'lganligidan dalolat bermoqda.¹

Yuqoridagi davlatlarning harbiy diplomatik munosabatlarini qiyosiy tahlil qilish natijasida quyidagi jadval shakllantirildi:

Asosiy mezonlar	Xiva xonligi	Buxoro amirligi	Qo'qon xonligi
Diplomatik siyosat	Savdo va asirlar masalasi	Diniy-siyosiy legitimlik	Harbiy-siyosiy kengayish
Harbiy qudrat va salohiyat	Otliq qo'shinlar	Regulyar armiya	Namoyishkorona harbiy harakatlar va beklar boshqaruvidagi qo'shin
Rossiya bilan munosabatlar	Cheklangan harbiy qarshilik va diplomatik muzokara	Diplomatik muzokara va cheklangan qarshilik	Qurolli qarshilik
Tashqi aloqalar	Yaxshi rivojlangan	Islomiy davlatlar	Savdo-diplomatik aloqalar (Sin imperiyasi)

Ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, 3 ta davlatda ham harbiy diplomatiya ichki siyosiy barqarorlik, iqtisodiy imkoniyatlar va tashqi tahdid darajasiga qarab shakllangan. Zamonaviy harbiy-texnik islohotlarning etarli darajada emasligi ularning Rossiya imperiyasiga qarshi samarali strategiya ishlab chiqishiga hamda kurashishiga to'sqinlik qilgan. Mazkur davlatlar o'rtasidagi harbiy-do'stona munosabatlar zaif darajada ekanligi, o'zaro strategik ittifoq tuzaolmaganligi hamda ichki nizolarning salbiy ta'siri natijasida ruslar Markaziy Osiyo hududini egallab olgan.

XX asrda xalqaro munosabatlar, xususan, harbiy diplomatiya sohasida tub o'zgarishlar sodir bo'ldi hamda harbiy hamkorliklar kengayishni boshladi. Yangi mustaqil mamlakatlarning vujudga kelishi, harbiy razvedka ma'lumotlariga bo'lgan ehtiyojlarning ortishi va qurol-aslaha tizimini kompleks rivojlantirishga

¹ Турсунов Б.Р. Дипломатические отношения Кокандского ханства с империей Цинь. Retrieved from <https://cyberleninka.ru>



bo'lgan zaruratning kuchayishi davlatlarda harbiy diplomatiyaning ahamiyati oshishiga olib keldi.

Jumladan, 1917 yildan keyin xorijiy davlatlarga safarbar etiladigan ofitserlar zimmasiga o'zi borgan mamlakatning harbiy-iqtisodiy qudrati, mudofaa salohiyati va rejalarini o'rganish, turli sohaga oid ma'lumotlarni to'plash kabi vazifalar yuklatila boshlandi.

Ushbu asrda yuzaga kelgan keng miqyosdagi harbiy harakatlar hamda qurolli to'qnashuvlar xalqaro munosabatlar, shu jumladan, diplomatiya sohasida tubdan o'zgarishlarni vujudga keltirdi.

Xususan, ikkinchi jahon urushi vaqtida davlatlar o'rtasida harbiy vakillarni yuborish yanada kuchaydi. Ushbu davrdagi ma'lumotlarni tizimli hamda qiyosiy tahlil qilish natijasida harbiy diplomatiya razvedka ma'lumotlarini almashish, koalitsiyalar tuzish va ittifoqchilar o'rtasida hamkorlikni koordinatsiyalashda muhim rol o'ynaganini guvohi bo'lishimiz mumkin. Shuning uchun yetakchi davlatlar o'zining xorijiy davlatlardagi harbiy attashe vakillarini kengaytirishni muhim vazifa sifatida belgiladi. Urush boshlanishigacha Sobiq Sovet Ittifoqining xorijdagi harbiy attashe apparati soni 15 taga yaqin bo'lgan bo'lsa, 1960 yil oxiriga kelib 36 taga (13 ta harbiy dengiz attashe apparati, 5 ta harbiy havo attashesi, qolganlarini umumiy harbiy attashe apparati) etgan. Ushbu harbiylarga butun dunyodagi harbiy-siyosiy va harbiy-strategik vaziyatni kuzatish va tahlil qilib borish vazifasi yuklatilgan.¹

Sovuq urush (1947–1991) davri harbiy diplomatiya uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Jahon ikki raqib blokka bo'lingan bir paytda harbiy diplomatiya qurol-aslaha nazorati muzokaralari, iqtisodiy inqiroz holatida muloqot va pragmatizmni ta'minlashning asosiy vositasiga aylandi. Misol uchun, Xotlayn kelishuvi (1963), Amerika Qo'shma Shtatlari va Sovet Ittifoqi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqalarni o'rnatish bo'yicha anglashuv memorandumumi (Memorandum of Understanding Between The United States of America and The Union of Soviet Socialist Republics Regarding the Establishment of a Direct Communications Link) va Dengizda to'qnashuvlarni oldini olish to'g'risidagi kelishuv (Convention on the International Regulations for Preventing Collisions at Sea - COLREGs, 1972) tasodifiy mojarolarning oldini olish uchun ishlab chiqilgan edi. Bundan tashqari, Yevropa xavfsizlik va hamkorlik konferensiyasi ishonch va xavfsizlikni ta'minlash borasida chora-tadbirlarni ishlab chiqdi, bu keyinchalik Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti amaliyotining asosini tashkil etdi.²

1961 yilda xalqaro munosabatlar va diplomatiya sohasida muhim huquqiy asos bo'lgan **Vena Konvensiyasi** qabul qilindi. Unda harbiy diplomatiya, xususan,

¹ Kennedy, P. (2017). *The rise and fall of the great powers*. London: Penguin. - pp. 195-206.

² احمدی، عبدالواحد. (۲۰۱۸). روابط بین الملل معاصر. کابل: انتشارات سعید، صص ۱۳۴-۱۴۸.

(Ahmadi, A. (2018). *Revabet-e beynolmelal-e moaser*. Kabul: Entesharat-e Saeed. -pp-134-148).



harbiy attashening huquqiy maqomi belgilandi hamda diplomatlar bilan bir xil immunitet va imtiyozlar joriy etildi.

“Diplomatik aloqalar to‘g‘risida”gi Vena Konvensiyasining 7-moddasida, “Konvensiyaning 5, 8, 9 va 11-moddalarida belgilanganidan tashqari, akkreditatsiya qilayotgan davlat hukumat a‘zolarini mustaqil ravishda lavozimga tayinlashi mumkin. Harbiy, harbiy-dengiz yoki harbiy-havo attashelarini lavozimga tayinlashda, qabul qilayotgan davlat tomonidan nomzodlarning nomlari oldindan ma‘qullanishi uchun yuborilishini talab qilinishi mumkin”, deb belgilangan.¹

Yuqoridagi huquqiy me‘yorlardan kelib chiqqan holda harbiy diplomat (harbiy attashe) diplomatik korpus vakili sifatida baholandi, diplomatik korpus a‘zosiga berilgan barcha imtiyozlar hamda huquqlarga ega hisoblandi.

1991 yildan so‘ng harbiy diplomatiyaning asosiy e‘tibori xalqaro harbiy hamkorlikni tashkillashtirish, kengaytirish, tinchlikparvar missiyalar va mudofaa islohotlariga qaratildi. NATOning “Tinchlik yo‘lida hamkorlik dasturi” (PfP - Partnership for Peace) mazkur tashkilotga a‘zo bo‘lmagan davlatlar bilan ham hamkorlik qilish imkonini yaratdi. Xalqaro harbiy diplomatiya gumanitar yordam, tabiiy ofatlar va terrorizmga qarshi kurashda ham muhim ahamiyat kasb etdi.²

XXI asrda esa **kiber va kosmos xavfsizligi** kabi yangi yo‘nalishlar harbiy diplomatiya doirasini yanada kengaytirdi va texnologik raqobat mamlakatlar o‘rtasida yanada kuchaydi.

Endilikda harbiy diplomatiya qurolli kuchlar va elchixonalar orqali amalga oshirilgan an‘anaviy diplomatik hamkorlikdan tashqari, yangi va texnologiyaga bog‘liq sohalar – kiberxavfsizlik va kosmosdagi xavfsizlikni ham qamrab oldi.

Hozirgi kunda kiberxavfsizlik mamlakatlar uchun strategik ahamiyat kasb etmoqda. Davlatlar kiberhujumlar va kiberrazvedka imkoniyatlarini kuzatish, kiberhimoya tizimlarini muvofiqlashtirish va xalqaro kiber qoidalarga rioya qilishda harbiy diplomatiyadan foydalanmoqda.

Misol uchun ochiq manbalar tahlillariga asosan, NATOning Kiber operatsiyalar markazi (NATO Cyber Operations Centre) tashkilotga a‘zo davlatlar o‘rtasida kiberxavfsizlik bo‘yicha hamkorlikni muvofiqlashtirish va kiber tahdidlarni kuzatishda harbiy attashelar muhim o‘rin egallamoqda.³

Shuningdek, ommaviy axborot vositalarida qayd etilishicha, AQSh va Buyuk Britaniya hamkorligida olib borilayotgan Kiber maxsus operatsiyalar (Cyber

¹ Венская конвенция о дипломатических сношениях от 18 апреля 1961 года. (1961) Вена. Ст. 7.

² Willard J.E. (2006). Military Diplomacy: An Essential Tool of Foreign Policy at the Theater Strategic Level. Kansas. - p. 22.

³ Singer, P., Friedman, A. (2018). Cybersecurity and cyberwar. Oxford: Oxford University Press. - pp. 25–30.





Special Operations) harbiy attashelar va kiberrazvedka xizmatlari yordamida Rossiya hamda Xitoyning kiber harakatlarini tahlil qilib bormoqda. Tahliliy ma'lumotlar harbiy sohadagi rejalashtirish va global kiberoxavsizlik siyosatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega hisoblanmoqda.

Shu bilan birga kosmos sohasi ham harbiy diplomatiya uchun strategik platformaga aylandi. Dunyo mamlakatlari sun'iy yo'ldoshlar, raketalar va kosmik qurilmalarning xavfsizligi, xalqaro kosmos qoidalariga rioya qilish masalalarida diplomatik hamkorlik va raqobatni muvofiqlashtirishga majbur bo'lmoqda.

Qo'shma Kosmik Faoliyat va DoD Space Operations (AQSh). Amerika harbiy attashelari va kosmos qo'mondonligi elchixonalar vositasida Rossiya va Xitoyning kosmosdagi harbiy faoliyatini kuzatib borishadi. Masalan, 2020–2023 yillar oralig'ida Qo'shma Shtatlar kosmos qo'mondonligi eng muhim sun'iy yo'ldoshlar va ilmiy kosmik qurilmalarning xavfsizligini ta'minlash uchun kiber hamda diplomatik tadbirlarni muvofiqlashtirgan.¹

XULOSA

Harbiy diplomatiya insoniyat tarixidagi davlatlararo hamda xalqaro munosabatlarning ajralmas qismi bo'lib, XVII asrdan boshlab institutsionallashgan va XX–XXI asrlarda global xavfsizlik arxitekturasining muhim qismiga aylangan.

Qadim zamonlarda xalqaro munosabatlar doirasida harbiy diplomatiya faoliyati harbiy qudratni namoyon etish, dushman davlatlar armiyalari haqida ma'lumotga ega bo'lish uchun razvedka tadbirlarini amalga oshirish, hamkor davlatlarga harbiy yordam ko'rsatish va raqib davlatlarga qarshi turli tadbirlarni amalga oshirish uchun foydalanilganligi ilmiy izlanishlar davomida ma'lum bo'ldi.

Hozirgi kunda kiber va kosmos sohalarining kirib kelishi harbiy diplomatiyaning funksional doirasini kengaytirib, uni mamlakat tashqi siyosati va milliy xavfsizligini ta'minlashning strategik mexanizmiga aylantirmoqda.

Zamonaviy bosqichda harbiy diplomatiya mamlakatlar o'rtasida harbiy hamkorlikni yo'lga qo'yish, ishonch choralari mustahkamlash, ehtimoliy harbiy mojarolardan ogohlantirish va oldini olish, xalqaro miqyosda tinchlik hamda xavfsizlikni ta'minlashda asosiy vositalardan biri hisoblanmoqda.

¹ U.S. Department of Defense. (2020). Defense space strategy. Washington. - pp. 1–7.